

**AGRESSIYA – O‘SMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN  
TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI FENOMEN  
SIFATIDA**

<sup>1</sup>**Komilova Aziza Sunatullaevna**

<sup>2</sup>**Adilova Madina Shamsidinovna**

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

[aziza.komilova2022@gmail.com](mailto:aziza.komilova2022@gmail.com)  
[madina.adilova87@gmail.com](mailto:madina.adilova87@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘smirlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan yod illatlar hamda ularning salbiy oqibatlari, qolaversa ushbu salbiy illatlar natijasida o‘smirlar o‘rtasida agressiv munosabatlarning vujudga kelishi, tajovuzkorlik ichki bezovtalik va his-tuyg‘ularini jilovlay olmaslik, ota-onalarning bolani tajovuzkor xatti-xarakatlarida o‘zlarini qay darajada aybdor xisoblashlari haqida fikr mushohada yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Jinoyatchilik, agressivlik, tobelik, tajovuz, ijtimoiy tarmoq, internet.

**АГРЕССИЯ - РАЗВИТИЕ АГЕНТНОСТИ У ПОДРОСТКОВ  
КАК ЭФФЕКТИВНОЕ ЯВЛЕНИЕ**

<sup>1</sup>**Комилова Азиза Сунатуллаевна**

<sup>2</sup>**Адилова Мадина Шамсидиновна**

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана

[aziza.komilova2022@gmail.com](mailto:aziza.komilova2022@gmail.com)  
[madina.adilova87@gmail.com](mailto:madina.adilova87@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены странные заболевания, встречающиеся у подростков и их негативные последствия, более того,

возникновение агрессивных установок у подростков в результате этих негативных заболеваний, неумение контролировать агрессию, внутреннюю неутомимость и эмоции, степень, в которой родители считают себя виновными в агрессивном поведении ребенка.

**Ключевые слова:** Преступность, агрессивность, зависимость, агрессия, социальная сеть, интернет.

## AGGRESSION - THE DEVELOPMENT OF AGENCY IN ADOLESCENTS AS AN EFFECTIVE PHENOMENON

<sup>1</sup>**Komilova Aziza Sunatullaevna**

<sup>2</sup>**Adilova Madina Shamsidinovna**

**Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan**

[aziza.komilova2022@gmail.com](mailto:aziza.komilova2022@gmail.com)  
[madina.adilova87@gmail.com](mailto:madina.adilova87@gmail.com)

**Annotation:** In this article, the problems that arise among teenagers and their negative consequences, as well as the emergence of aggressive relationships among teenagers as a result of these negative problems, the inability to control aggression, inner restlessness and emotions, the extent to which parents consider themselves guilty of aggressive behavior of a child will be considered.

**Key words:** Crime, aggressiveness, addiction, aggression, social network, Internet.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridan jismonan sog‘lom va ma‘nan etuk avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilanganligi ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat siyosatining mantiqiy davomi hisoblanadi. Farzandlarimizning sog‘lom va barkamol

o'sishi ota-ona baxti, oila quvonchi ekanligi bilan birga, yurtimizning buguni va kelajagini belgilovchi muhim omil sanaladi. Lekin hozirgi kunda voyaga etmaganlar orasida jinoiy ishlar sodir bo'layotganining guvohlari bo'lib qolayapmiz. Bularning asosiy sababi sifatida voyaga etmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy va psixologik tadbirlarning sustligini ko'ramiz. Ayni paytda voyaga etmaganlar orasida o'z joniga qasd qilish hollari uchrab turibdi. Bu - voyaga etmagan yoshdagi ayrim o'smirlarning ruhan nimjonligi, shu yoshga xos kayfiyat tartibsizligi, psixologik qarashlar va fikrlashlar oqibatidir. Bunday noxush hodisalarning oldini olish uchun voyaga etmaganlarga ana shunday o'tkinchi ruhiy holatlar haqida tushunchalar berish lozim.

Ma'lumki har qanday davlatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda asosiy poydevor bu - inson omili, uning intellektual salohiyati bilan uzviy bog'liq. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimiz aholisining katta qismi zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yoshlardan iborat ekanligini inobatga olgan holda, mazkur qatlamning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalardagi manfaatlarini himoya qilish va kuzatilayotgan dolzarb masalalarning nazariy va amaliy jihatdan echimini topish kun tartibidagi muhim masalalardan sanaladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Darhaqiqat, so'ngi vaqtlarda o'smirlar orasida turli salbiy ko'rinishdagi illatlar paydo bo'lmoqda. Jumladan, o'smirlar orasida salbiy ruhdagi jangari filmlar ommalashuvi, ijtimoiy tarmoqlar orqali salbiy ruhdagi "CHellendj" (*videokamerada vazifani bajarish, uni ijtimoiy tarmoqqa joylashtirish hamda bu vazifani do'stiga yoki foydalanuvchilarining cheksiz doirasiga takrorlashni taklif qilish*) kabi salbiy odatlar shakllanmoqda. Ushbu xarakterlar oqibatida huquqbuzarlik holatlarini uchrashi hollari, o'smirlar o'rtasida agressiv xulq-atvor xarakteri ko'rinishidagi nizoli vaziyatlar rivojlanishi yoki jangari ruhdagi videorolik yoki filmlarni muntazam kuzatib borish oqibatida o'tkir tig'li sovuq qurollarni o'zi bilan olib

yurish va undan muntazam foydalanishga urinish hollari o'smirlar orasida ommalashmoqda. Ushbu xarakatlarning barchasini zamirida tobelik oqibatida vujudga keladigan tajovuzkorlik-agressiya yotadi.

Agressiya destruktiv tabiatga ega bulgan individual biologik yoki ijtimoiy xulq kurinishidir. Agressiv xolatning kelib chikishi biologik va ijtimoiy psixologik omillarga ega bo'lib, uni boshqara olish qobiliyatiga juda kam insonlarga qodirdirlar.

Shu o'rinda bir qancha olimlarning shaxsdagi aggressivlik to'g'risidagi ilmiy qarashlarini aytib o'tish joiz. Jumladan, L.I.Zaxarovning fikricha, o'smirlarning tajovuzkor xatti-harakati tengdoshlari, oilasi va ommaviy axborot vositalarining ta'siri bilan belgilanadi. Tajovuzning barcha asosiy nazariy tushunchalarini ko'rib chiqib, biz ushbu hodisaning quyidagi umumlashtiruvchi ta'rif bilan qabul qilishimiz mumkin. Agressiya - barcha tirik mavjudotni haqorat qilish yoki unga zarar etkazishga qaratilgan xatti-harakatlarning har qanday ko'rinishi. Bu ta'rif tajovuzning his-tuyg'u yoki motiv emas, balki xatti-harakatlar modeli ekanligini ta'kidlaydi. [1, b.239]. Bizning shaxsiy tajribamiz, boshqalar muvaffaqiyatini kuzatishimiz hamda shunga o'xshash jarayonlarda ham agressiya ma'lum foyda keltirishini isbotlaydi. Agressiv tajriba tufayli paydo bo'lgan emotsional hayajon ham agressiyaga sabab bo'ladi. Salbiy ko'rinishdagi hayajonning natijasi ham ko'p hollarda agressiya bilan yakunlanadi, bu esa bizning shunga o'xshash vaziyatlar qanday oqibatlarga olib kelishini o'rganganligimizga bog'liq. [2, b.18]. Agressiya ko'pincha g'azab kabi salbiy his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'lsada motiv bilan zarar etkazish yoki xafa qilish istagidir. Albatta, bu omillar tajovuzkor xatti-harakatlarga juda katta ta'sir ko'rsatadi, ammo ularning mavjudligi bunday xatti-harakatlarning asosiy sharti emas. [3,b.288]. Rus psixologi Evgeniy Ilinning fikriga ko'ra esa, o'smirlardagi agressiya nafaqat psixologiya fanining davriy muammosi, balki bu

muammo huquq-tartibot organlariga ham tegishli butun jamiyatning muammosidir. [4, b.35] Sababi o‘smirlardagi agressiya yuqorida ta’kidlab o‘tilgandek, jamiyatdagi illatlar va jinoyatlarning o‘svuchi dinamikasini kafolatlovchi manbadir.

Hozirgi kunda o‘smirlar orasida uchraydigan tajovuzkorlik-agressiya yosh jixatlari bilan bir qatorda “o‘tish davri”ga ham aloqador jarayon hisoblanib, bu davrda o‘smir, katta yoshdagilarga taqlid qilish harakatlari bilan xarakterlanadi. O‘smir nafaqat fiziologik balki psixologik tarafdin ham o‘zgaradi. O‘smirlik davridagi tajovuzkorlik ichki bezovtalik va his-tuyg‘ularini jilovlay olmaslik belgisidir. Aksariyat ota-onalar bolaning tajovuzkor xatti-xarakatlarida o‘zlarini aybdor xisoblaydilar. Shubhasiz ko‘p narsa oilaga bog‘liq. Ilgari u qadar keng e’tibor qaratilmagan agressiya muammosi nega hozirgi kunda keng jamoatchilik muammosiga aylanib bormoqda degan savol tug‘iladi. Chunki tashqi tomondan bo‘layotgan salbiy ta’sirlar, salbiy ma’lumotlarni qabul qilish manbalari ortib bormoqda. Internet (*ijtimoiy tarmoqlar*), gadjet va televizordan qabul qilinayotgan salbiy ma’lumotlar ota-ona va farzand o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Oddiy misol tariqasida yosh bolaning qo‘lidan telefon, planshet yoki noutbukni tortib olsangiz uni sizga bo‘lgan tajovuzkorona reaksiyasiga duch kelasiz. Boshqacha qilib aytganda bugungi axborot texnologiyalari asrida o‘smirlarda axborot qabul qilish jarayoni jadallik va tezkorlik bilan amalga oshmoqda, jumladan deyarli har bir o‘smirda zamonaviy smartfon telefonlari mavjud bo‘lib, ular xoxlagan vaqtida smartfoni orqali internet tarmog‘idan turli xildagi ma’lumotlar olishi yoki jangari filmlar (*qiziqishiga qarab*) va shu ruhdagi onlayn internet o‘yinlarini yuklab olishlari mumkin. Ushbu salbiy ruhdagi ma’lumotlarni qabul qilishlari orqali ularda agressivlik va xavotirlanish darajasini oshib ketishi kuzalishi mumkin.

Individ ma'lum yoshga yetgach uning xarakter xususiyati, dunyoqarashi, tafakkuri va ongi shakllana boshlaydi. Bu davr oralig'ida unga ko'rsatilgan har qanday munosabat xotirada saqlanadi. Bunda bevosita uning yaqinlari, asosan otana ishtirok etadi. Bolaga berilgan e'tibor, mehr, tarbiya, ta'lim va axloq uning hayotini keyingi, katta sotsial jamiyat uchun tayyorlab beradi. Insonlar bilan muloqot qilish, omma oldida o'zini tutish, ijtimoiy axloq normalari, internet tarmoqlaridan umumli foydalanish kabi bir qator dolzarb muammolar o'smir yoshiga etgan bolalar uchun qiyin masala bo'ladi. Xuddi shu yoshda bolada ko'proq egoizm va yoshga doir agressiya kuzatiladi. Bunga internet tarmoqlaridagi saytlar, videolar, ma'ruza va rasmlar orqali qabul qilinayotgan ma'lumotlar sabab bo'ladi. Internetga qaramlik shaxsning maqsadini o'zgartirishi, uning motiv va motivatsiyasiga salbiy ta'sir etishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Har bir yoshdagi davr uchun asosiy faoliyat turi xarakterlanadi va u maqsadlarni belgilash jarayonini rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqdan olinayotgan filtrlanmagan ma'lumotlar to'g'ri yo'ldan chalg'itishi mumkin. O'smirlik yoshi ruhiy rivojlanishning muhim davriga tegishli. Bu yoshning eng muhim psixologik ierarxiyasi o'zini anglashning shakllanishidir. O'smirning o'zini anglashini tavsiflovchi muhim xususiyati balog'atga etishni his qilish deb hisoblanadi. Shunday qilib, o'smirlar haqiqiy munosabatlar tizimida shakllanadi. Sir emaski so'ngi vaqtlarda onlayn tarmoq xuruji va kasalliklari o'smirlar orasida keng tarqalmoqda. Internetga qaramlik bir qator psixologik muammolarni shakllantirishga hissa qo'shadi, jumladan, turli mojaro, surunkali tushkunlik, vertual hayotning haqiqiy hayotdan afzalligi, internetdan foydalanishning yo'qligida noqulaylik tuyg'usining paydo bo'lishi, uyqusizlik, surunkali charchoq, miya faoliyatining buzilishi, nevroitik kasalliklar, axloqsizlik, tana a'zolarining xastalanishi, umidsizlik va shunga o'xshash bir qator jiddiy muammolar tug'iladi. Bunday vaziyatlarning oldini olish maqsadida bir qator chora-

tadbirlar amalga oshirish yo'nalishlari va rejaları muhokamaga qo'yilmoqda. Xozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar eng ommabop va tezkor axborot tarqatish vositasiga aylandi. Aynan o'smirlik davrida o'quvchilarni axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish muhim sanaladi. Inson ongini egallashga intilish tobora kuchayayotgan hozirgi sharoitda yosh avlodni ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy axborotlardan asrash eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Virtual tizimda axborotlarning hammasi ham ilmiy asoslangan, faktlar, dalillar asosida isbotlangan ishonchli ma'lumotlar hisoblanmaydi. O'quvchi-yoshlar axborot resurslaridan kutubxona, ma'lumotlar bankidan ko'ra telefon orqali internet tizimidan foydalanishni afzal ko'rishmoqdalar. Tabiiyki hamma ham internetning aniqlik xususiyatiga e'tibor qaratib o'tirmaydi. Bu esa internetga bizni boshqarish imkoniyatini tuhfa etadi.

Ma'lumki, ijtimoiy tarmoq deganda avvalo ko'z oldimizda qiziqishlari o'xshash bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngilochar va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma gavdalanadi. Bugungi kunda biz internet va ijtimoiy tarmoqlarisiz hayotimizni tasavvur qilishimiz qiyin. Ular allaqachon hayot faoliyatimizning bir qismiga aylanib ulgurdi va har qanday sohada internet tarmog'iga tayanilmoqda. Albatta bu insoniyatga qo'l keladi va har bir sohaning ish unumdorligini, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda tarmoqlar foydalanish maqsadiga ko'ra bir necha guruhlarga bo'linadi: a) Gorizontal ijtimoiy tarmoqlar - ular biron bir aniq foydalanuvchi turi uchun yaratilmagan, aksincha, ularda har qanday shaxslar o'zaro ta'sir o'tkazadilar. O'z jamoalarini yaratadilar. b) Vertikal ijtimoiy tarmoqlar - ular ma'lum bir auditoriyaga murojaat qiladiganlardir. Ular ixtisoslashgan ijtimoiy tarmoqar sifatida tanilgan. v) Professional ijtimoy tarmoqlar - ular vertikal ijtimoiy tarmoqning bir turi bo'lib, biror ish maqsadi bilan o'zaro

aloqada bo'lgan mutaxassislar, turli sohalardagi kompaniyalar yoki ishchilar uchun qo'l keladi. g) Bo'sh vaqtni o'tkazishga qaratilgan ijtimoiy tarmoqlar - ushbu turdagi ijtimoiy tarmoqning mavzusi har xil sport, musiqa, video o'yinlar va hokazolardan iborat. d) Aralash vertikal ijtimoiy tarmoqlar - ular professional va bo'sh vaqt mavzularini birlashtiradi, shuning uchun ular rasmiyroq tusga ega. e) Ijtimoiy yangiliklar - ba'zi bir ijtimoiy tarmoqlar odamlarga bir nechta yangiliklar yoki tashqi maqolalarga havolalar joylashtirishga imkon beradi va ushbu foydalanuvchi maqolasiga "ovoz berish" imkoniyatini paydo qiladi. j) Umumiy tarkib - bular video, rasm yoki turli xil tarkibga ega bo'lgan medialarni yuklab olishga ruxsat beruvchi ijtimoiy tarmoqlar.

Kuzatishlarimiz natijasiga ko'ra quyidagi xulosaviy natijalarni kuzatish mumkin:

- Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoq va jangari filmlarni muntazam kuzatib borish o'smirlarning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishi;
- Agressivlik darajasi jins xususiyatlariga bog'liqligi;
- Shaxslararo munosabatalardagi o'zgarishlar ham sinaluvchilarning jinsiga bog'liq ekanligi;
- Jangavor filmlarni muntazam tomosha qiladigan o'smirlarda bilvosita tajovuzni pasayishi kuzatilishi mumkin ekanligi;

Ushbu ijtimoiy muammo sifatida qaralayotgan masalalarning yechimi sifatida keng jamoatchilik, tajribali ilm ahli, malakali pedagog va psixologlar tomonidan tavsiyalar ishlab chiqish, bu borada ilmiy ishlar olib borish hamda uni ijtimoiy tarmoqlar orqali profilaktika maqsadida yoritib borish lozim degan xulosaga kelish mumkin. Buning natijasida o'smirlarga nisbatan e'tibor yanada ortadi, o'smirlarning psixologik xususiyatlari o'rganiladi, tahlil qilinadi hamda ular ruhiyatidagi turli muammolarning amaliy echiimi xususida baxs yuritiladi deyish mumkin. Bundan

tashqari ilmiy izlanishlar natijasida yuzaga kelgan tavsiyalar darsliklarga kiritilib, kelajakda o'smirlar bilan psixokorreksion, psixoprofilaktik, psixokonsultatsion ishlarni tashkil etishda dasturul amal bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda har qanday axborot xurujlari, ommaviy madaniyat xavfidan himoyalangan internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siridan butun millatni, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni himoya qilish har bir ongli insonning burchi ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Захаров Л.И. Психотерапия неврозов у детей и подростков. Москва 2012 239 с.
2. Реан А.А. Агрессия и агрессивность личности. - СПб, 1995.18 с.
3. Змановская Э.В. Девиантология (психология девиантного поведения)- М.: Академия, 2004.-288 с.
4. Психология агрессивного поведения, Ильин Е., Питер, 2014. 35 с.
5. To'liqinovich, A. G. (2022). IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR ONGI VA MA'NAVIYATIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 561-566.
6. Salim o'g'li, Y.U.(2022). PSIXOLOGIK AXBOROT XAVFSIZLIGI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 66-72.
7. Yo'ldoshev Sardor Asliddin o'g'li. (2022). PSIXOLOGIK ZO'RAVONLIK VA KIBERBULLING. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*,1(2), 62–66. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/119>
8. Устин, П., Лутфуллаева, Ф., & Санаев, А. (2022). Гендерная психология: некоторые проблемы и перспективы. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning*

*dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 412-415.*

9. Равшанов, О. (2022). Конфликты между учителем и учениками и способы их решения. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 508-511.*

10. Axmedovich, R.O. (2022). GLOBALASHGAN AXBOROT DAVRI VA SHAXSNING AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 38.*

11. Sunatullaevna, K. A., & Axmedovich, R. O. (2022). Internet is a depression. The benefits and harms of cyberspace on the human psyche. *Eurasian Scientific Herald, 5, 69-73.*

12. Комилова, А. С., & Равшанов, О. А. (2022). TALABALARDA O ‘ZIGA BO ‘LGAN ISHONCH VA PSIXOLOGIK MADANIYATNI OSHIRISH: Komilova Aziza Sunatullaevna, Mirzo Ulug ‘bek nomidagi O ‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasida katta o ‘qituvchisi Ravshanov Olim Axmedovich, Mirzo Ulug ‘bek nomidagi O ‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasida katta o ‘qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (4), 267-270.*

13. Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Психолого-педагогическая работа по организации самовоспитания подростков. *Молодой ученый, (10), 1306-1308.*

14. Комилова, А. (2021). Роль родителей в подготовке молодежи к семейной жизни. *Общество и инновации, 2(10/S), 437-441.*

15. Жуманова, Н. Ш., Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Развитие инновационных систем в образовании. *Молодой ученый, (4), 777-778.*

- 16.Алимкулов, С. О. У., Мелибоев, А. Р., Комилова, А. С., & Туракулов, Л. Т. (2016). Решение разных проблем в образовании с помощью 3D-технологии. *Проблемы педагогики*, (12 (23)), 12-13.
- 17.Sunatullaevna, K.A. (2022). KITOVBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 518-521.
- 18.Sunatullaevna, K. A., & Qudratovna, N. F. (2022). INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-525
- 19.Eshmurodov, O. (2023). OILAVIY MUNOSABATLAR BARQARORLASHSHUVIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8238>
- 20.Narbasheva, M. A. (2021). The importance of pedagogical and psychological literacy of parents in preparing children for school education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 728-732.
- 21.O.E.Eshmuradov - [Oilaning ma'naviy-axloqiy xususiyatlari va oila mustahkamligini ta'minlash imkoniyatlari](#) Academic research in educational sciences, 2021 ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES
- 22.O.E.Eshmuradov [Oilaviy munosabatlarda shaxs moslashuvchanligi xususiyatining oila mustahkamligiga ta'siri: doi: https://doi. 0.53885/edinres. 2021.21. 57.012](#) Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya ..., 2021
- 23.Eshmurodov, O. (2022). ҚАЙНОНА ВА КЕЛИН ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ БОЛАЛАР ТАРБИЯСИГА ТАЪСИРИ . Журнал

Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7431>

24.Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>

25.Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>

26.Ahmedov, V. (2022). МУҲАББАТ ҲИСЛАРИ БОСҚИЧЛАРИНИНГ ГЕНДР ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7457>

27.Norbosheva, M. (2022). МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛА ШАХСИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7459>

28.Alimardanova, R. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА ЁШ КЕЛИН-КУЁВ ШАХСИНИНГ ХАРАКТЕРОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ ХУЛҚ-АТВОРНИНГ ЭМПИРИК КЎРСАТКИЧЛАРИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7458>